



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA DEONTOLOGIK YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Sulaymanbekov Oybek Dusbekovich

Samarkand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

Mazkur maqolada raqamli pedagogika sharoitida deontologik yondashuvning nazariy asoslari, uning ta'lim jarayonida namoyon bo'lishi hamda pedagoglarning kasbiy faoliyatida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Raqamli ta'lim muhiti pedagogik etikani qayta ko'rib chiqishni talab qilayotgani, o'qituvchilar uchun mas'uliyat, axborot madaniyati, kommunikativ etik normalarga rioya qilish zaruriyati ortib borayotgani ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli pedagogika, pedagogik deontologiya, deontologik yondashuv, virtual muloqot, raqamli kompetensiya, pedagogik etika, axborot madaniyati, masofaviy ta'lim, raqamli transformatsiya.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE DEONTOLOGICAL APPROACH IN THE CONTEXT OF DIGITAL PEDAGOGY

Sulaymanbekov Oybek Dusbekovich

First Deputy Director for Youth Affairs and Spiritual and Educational Work,
Tashkent Branch of Samarkand University of Veterinary Medicine, Livestock and
Biotechnology, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotation.

This article analyzes the theoretical foundations of the deontological approach in digital pedagogy, its manifestation in the educational process, and its role in teachers' professional activity. It is scientifically argued that the digital learning environment requires a re-evaluation of pedagogical ethics, and that teachers increasingly need to observe responsibility, information culture, and communicative ethical norms.

Keywords: Digital pedagogy, pedagogical deontology, deontological approach, virtual communication, digital competence, pedagogical ethics, information culture, distance education, digital transformation.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ

Сулайманбеков Ойбек Дусбекович

первый заместитель директора по делам молодёжи и духовно-просветительской работе
Ташкентского филиала Самаркандского университета ветеринарной медицины,
животноводства и биотехнологий,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Аннотация.

В данной статье рассматриваются теоретические основы деонтологического подхода в цифровой педагогике, его проявления в образовательном процессе и роль в

профессиональной деятельности педагогов. Научно обосновывается, что цифровая образовательная среда требует переосмысления педагогической этики, а для учителей возрастает необходимость ответственности, информационной культуры и соблюдения коммуникативных этических норм.

Ключевые слова: Цифровая педагогика, педагогическая деонтология, деонтологический подход, виртуальная коммуникация, цифровая компетенция, педагогическая этика, информационная культура, дистанционное образование, цифровая трансформация.

Kirish: XXI asrda ta'lim tizimi keskin raqamlashtirilayotgan bir sharoitda pedagogik jarayonning mazmuni, shakli va mexanizmlari tubdan o'zgarib bormoqda. Raqamli pedagogika nafaqat yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishni, balki pedagogik faoliyatning etik-me'yoriy asoslarini qayta ko'rib chiqishni ham taqozo etmoqda. Ayniqsa, virtual darslar, masofaviy muloqot, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari pedagogning kasbiy mas'uliyati va axloqiy me'yorlariga yangicha yondashuvni talab qiladi. Shu sababli deontologik yondashuv raqamli ta'limda muhim metodologik kategoriya sifatida namoyon bo'lib, o'qituvchining axborot bilan ishlashi, talaba bilan aloqasi, onlayn muhitda o'zini tutish madaniyatini belgilab beradi. Bugungi kunda pedagogik deontologiyaning raqamli pedagogika bilan uyg'unlashuvi o'qituvchilar kasbiy faoliyatida yangi standartlarni shakllantirmoqda. Xususan, raqamli kommunikatsiyada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, virtual etik muloqot madaniyatiga rioya qilish, akademik halollikni ta'minlash, onlayn axborotning ishonchligini baholash kabi jihatlar deontologik yondashuvning dolzarbligini oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan mavzu bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli muhit talab qiladigan etik va mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Raqamlashuv va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan boyitilgan ta'lim muhiti pedagogik jarayonda deontologik yondashuvning ahamiyatini tobora oshirmoqda. Bugungi kunda texnologiyalar va internetning keng qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olish jarayoniga yangi shakllarni kiritmoqda. Bu jarayon ularning intellektual rivojlanishi, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, axborot bilan ishlash malakasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Biroq, raqamli muhitning faol ishlatilishi shaxslararo muloqotda yangi to'siqlarni yuzaga keltiradi. Masofaviy va onlayn muloqot shakllarining kengayishi, shuningdek, vizual va emoji orqali ifodalashning o'sishi, jonli pedagogik muloqotning hissiy va mimik komponentlarini cheklashi mumkin. Shu sababli, raqamli pedagogika sharoitida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda deontologik yondashuv asosida muloqot ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda nafaqat ona tilini mukammal o'zlashtirish, balki axloqiy va ma'naviy kamolotga erishish, shaxslararo muloqotda mas'uliyatli va etika asosida harakat qilishni ta'minlaydi. Virtual va raqamli muhitda pedagogik deontologiya me'yorlariga rioya qilish, o'quvchilarning turli nutqiy vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va erkin fikr almashishga imkon beruvchi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish zarur [2]. Shu tariqa, raqamli pedagogika sharoitida deontologik yondashuv, nafaqat ta'limning sifatini oshirish, balki shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik deontologiya asosida shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunda ta'lim jarayonida ijtimoiy va metodik zaruratga aylangan. Bu ko'nikmalar bo'lajak pedagoglarda nafaqat ravon nutq va samarali muloqot qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, balki ularni raqamli va virtual muhitda erkin, mas'uliyatli va etik tarzda harakat qilishga tayyorlaydi. Natijada, o'quvchilar va talaba-pedagoglar nafaqat bilim olishadi, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish, jamoada hamkorlik qilish va kasbiy muhitda o'zini to'g'ri tutish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ular jamiyat

oldidagi mas'uliyatini anglab, ta'lim jarayonida egallagan bilim va deontologik ko'nikmalarini kelajakdagi kasbiy faoliyatda samarali qo'llay oladilar. Ta'limning samaradorligi, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy kamoloti, jamiyat muammolariga ijobiy yechimlar taklif qila olish qobiliyati bilan belgilanadi [3]. Shu nuqtai nazardan, raqamli pedagogika sharoitida deontologik yondashuv asosida muloqot ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat zamonaviy ta'limning talablariga javob beradi, balki kelajak avlodni mas'uliyatli, etik va muloqotga tayyor shaxslar sifatida shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Ta'limni sifatli, samarali va zamonaviy talablar darajasida tashkil etish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan hukumat qarorlari pedagogik jarayonda xalqaro standartlarni tatbiq etishga imkon yaratmoqda. Xususan, "Ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)" kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi, milliy ta'lim tizimining sifatini oshirish va pedagogik faoliyatda ilg'or tajribalarni tatbiq etish borasidagi e'tibor mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy maktab va oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilar egallagan bilimlarni mustaqil hayotda qo'llay olish, nostandart vaziyatlarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro PISA, PIRLS va TIMSS kabi baholash dasturlarining milliy ta'lim tizimiga joriy etilishi pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, o'quvchilar va bo'lajak pedagoglarning kompetensiyalarini zamonaviy standartlar darajasida rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Raqamli pedagogika sharoitida esa ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda deontologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagog va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning etik me'yorlarini belgilab beradi, virtual va masofaviy muhitda mas'uliyatli va samarali ta'lim jarayonini ta'minlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bu yondashuv pedagogik faoliyatni xalqaro talablarga moslash, o'quvchilarda mas'uliyat, axloqiy va kasbiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi [4].

Hozirgi jadal sur'atda rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini, xususan, uning poydevori hisoblangan boshlang'ich ta'lim tizimini raqamlashtirish muammosini pedagogik nuqtai nazardan o'rganish zarurati ortib bormoqda. Bo'lajak pedagoglarda raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantira oladigan va raqamli savodxonlik darajasiga ega bo'lgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash, aynan pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ta'limda raqamli transformatsiyani joriy etish jarayonini tashkil etish makon va zamon chegaralarini kengaytiradi, shuningdek, mazmun va sifatning uzluksiz va muvozanatli bo'lishini ta'minlashga olib keladi. Bunday transformatsiyani amalga oshirishda esa kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, "raqamlashtirish" va "raqamli ta'lim" atamalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish muhimdir. E.L. Vartanova, M.I. Makseyenko va S.S. Smirnovning nazariyalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish faqat axborotni raqamli shaklga o'girish jarayoni emas, balki ta'lim mazmunining infratuzilmaviy, boshqaruviy, xulq-atvor va madaniy komponentlarini o'z ichiga olgan keng qamrovli jarayondir. Ularning fikricha, raqamlashtirish ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda va o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda markaziy rol o'ynaydi. Bu nazariy yondashuv raqamli me'yorlar va kompetensiyalarni shakllantirishda ham pedagogik ham deontologik prinsiplarni hisobga olishi kerakligini ko'rsatadi.

Muloqot – bu insonlar o'rtasidagi axborot almashish jarayoni bo'lib, u til (og'zaki va yozma), nonverbal kommunikatsiya (mimika, tana tili va ovoz tonu) va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi. Muloqotning asosiy turlari sifatida og'zaki, yozma va nonverbal kommunikatsiya ajratiladi. Insonlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va g'oyalarini ifodalashda turli usullardan foydalanadilar: so'zlar, mimika, tana harakatlari, ovoz ohangi va boshqa kommunikativ vositalar orqali. Muloqot jarayonida axborotni to'g'ri yetkazish, uni tushunish va qabul qilish katta ahamiyatga ega — bu jarayon shaxslararo munosabatlarning sifatini belgilaydi va ijtimoiy

aloqalarni shakllantiradi. Psixologik nuqtai nazardan, muloqot insonlar o'rtasida hissiy bog'lanish va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni mustahkamlashga yordam beradi, chunki muloqot orqali odamlar bir-birining ichki holatini anglaydi, ishonch va hamkorlik aloqalarini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida pedagog-pedagog yoki pedagog-o'quvchi muloqoti ayniqsa muhim: pedagogik muloqot madaniyati va psixologiyasi o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini shakllantirishda deontologik yondashuvning asosiy elementi bo'lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar muloqotga yangicha shakl beradi: masofaviy muloqot, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar paydo bo'lishi bilan, kommunikatsiya usullari kengayib, yangi aloqa vositalari va uslublari (chat, video konferensiyalar, virtual klasslar) tobora ommalashib bormoqda. Bu tendensiya pedagogik jarayonda ham muloqot ko'nikmalarini yangicha shakllantirishni talab qiladi — xususan, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi virtual muloqotda samimiylilik, tushunish va axloqiy mezonlarning saqlanishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.Сысоева, М.Ефимовна. Многоуровневая подготовка педагогических кадров к профессиональной деятельности в условиях цифрового обучения : диссертация ... доктора педагогических наук : 13.00.08 / - Москва, 2019. - 461 с.
2. Э.З.Галимуллина. Педагогическое обеспечение достижения предметных образовательных результатов школьниками в цифровой образовательной среде : диссертация ... кандидата педагогических наук : 5.8.1. / Галимуллина Эльвира Зуфаровна; [Место защиты: ФГБОУ ВО «Самарский государственный социально-педагогический университет» ; Диссовет 24.2.020.01 (Д 212.216.01)]. - Казань, 2023. - 220 с.
3. Г.В.Валеева. Цифровая трансформация образования в российской высшей школе : социально-этический анализ : автореферат дис. ... кандидата философских наук : 5.7.4. – этика диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Тула, г 2024. С 161.
4. Б.М.БАБАДЖАНОВ. Педагогический синкретизм в современных условиях внедрения цифровых технологий в школьном языковом образовании в республике Таджикистан. Общая педагогика, история педагогики и образования диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Хужанд, 2024 г. С 188.